

ATHAM AMIN NEMUTLU

DUO TAQDIRNI O'ZGARTIRADI

Bu roman bo'lib o'tgan voqeadan
ta'sirlangan holda yozilgan...



DUO

TAQDIRNI O'ZGARTIRADI

ADHAM AMIN NEMUTLU



TOSHKENT - 2022

UO'K: 28:159.9
KBK: 86.38
N 44

Adham Amin Nemutlu

Duo taqdirni o'zgartiradi [Matn] / Adham Amin Nemutlu -
Toshkent: BEST-BOOK, 2022 - 224 b.

Bu roman hayotda bo'lib o'tgan voqeadan ta'sirlangan holda yozilgan... Inson taqdirida shunday bir buri-
rilish nuqtasi borki, ayni isyon qiladigan paytingda, ha,
o'sha onda qisqagina bir duo bilan - aynan hovuchlaring-
da turgan mana shu ko'rinmas tilsim bilan - qadaring oqi-
mini o'zgartirib yuborasan.

Tarjimon: Oybek Xaydarov

ISBN 978-9943-8250-8-6

© Adham Amin Nemutlu
© BEST BOOK, 2022



ADHAM AMIN NEMUTLU



*Bu roman real voqeadan
ta'sirlangan holda yozilgan...*

Tayyormisiz? Unda boshladik...

QIYINCHILIKLARDAN HIMOYALOVCHI BESH QALA

Uyga kelsam, onam yig'layapti. Shoshib qoldim, to'g'risi, nima bo'lganini tushunolmadim. Endi undan ko'ngil so'rayman deb turgan edim hamki, eshik taqillab qoldi. Bu ovozi yuragim o'rtasidan o'q teshib o'tgandek, sarosimaga sotib qo'ydi meni. Chunki haqiqatan ham butun uyni qayg'u qoplab olgandi, bu anduh qon bosimimni oshira boshlagandi. "Ona, sizga nima bo'ldi?" deyolmay eshik tomon yugurishga majbar bo'ldim. Eshik tirqishidan qarasam, binomizga mas'ul qilib qo'yilgan kishi – hozir shunday nom berganmiz, avvallari eshikbon derdik – turibdi. Uning asl ismi Ahmad. Eshikni ochgim kelmay, onamning oldiga qaytib borishni xohladim, ammo ha deb taqillayvergach, ortga qaytib, eshikni ochdim.

Ahmad aka odamga hayoli boqadigan, o'z fikrini tushuntirib berishda qiynaladigan, soddagina, ko'ngli ochiq kishi edi. Hozir ham siniq bir ovozda:

"Salomatmisan, polvon?" dedi. Aslida, o'sha paytda kayfiyatim rasvo edi. ishqilib, ichkaridan yig'i ovozi eshitilmasin, deya ich-ichimdan duo qilib turarkanman: "Shukr, aka, yaxshiman, qani marhamat... Nima bo'ldi o'zi, shoshib turibsizmi?" dedim. Bu gapimni eshitib, Ahmad akaning ovozi yanada siniqlashdi va:

"Haligi, nima desam ekan, elektr tokini uzib qo'yish uchun kelishgan ekan... menga uchrashdi, pastda kutishyapti", dedi.

Bu gapni eshitib nima deyishimni bilolmay qoldim. Endi yigirma ikki yoshni qoralagan, shoshqaloq, aqldan ko'ra hissiyotlarga ko'proq yo'l beradigan bola edim o'sha paytlar. Hayot tajribamga ko'ra tengdoshlarimdan biroz oldinroqda bo'lsam ham, miyaning yoshlik tomirlari shoshqaloqlik bilan urardi. Shuning uchun ba'zida vaziyatni to'g'ri bahololmay qolardim. Ammo hayot o'rgatadigan narsalarning yosh va bilimga umuman aloqasi yo'q ekan. Hayot sirlarini boshlang'ich sinfda uncha-muncha o'rgatgan bo'lishdi. Ammo u o'qish orqali emas, tajriba vositasida o'rganilarkan. Mazkur "dars"dan ham kimdir a'lo, yana kimdir esa yomon baho olarkan. Ushbu shafqatsiz "fan"ning ikkichilaridan ekanimni o'sha kuni anglab yetdim...

O'smirlikgimdan o'rtoqlarimdan ajralib turardim. Ya'ni biroz qiziqqonroq litsey talabasi edim. Ochi-g'ini aytsam, urush-janjalgacha o'ch edim. "Litsey paytida to'g'ri yuradigan bola bo'ladimi o'zi?" deyishingiz mumkin. Ammo mening bu fe'lim biroz boshqacharoq edi. Militsiya idoralari, kasalxonalar, tezyordamlar, bezorilarni bosib olib ketishadigan maxsus mashinalar degandek... Xullas, ko'rmagan narsam, totmagan hayot "masallig"im qolmadi. Oxiri bosilib qoldim. "Qilgan ishlaringdan pushaymonmisan, yo'qsa?" deb so'rasangiz, pushaymon emasman.

Fikrimcha, hayot ilmi bilimlarning eng zo'ri bo'lib u o'qish bilan emas, tajriba vositasida o'rganiladi. Men ham devorlarga boshim urila-urila o'rgandim buni, af-susda emasman, ammo o'zini nazorat qilolmaydigan

darajada jahldor edim – ana shunga achinaman. Hech narsaga toqati yo'q, sabrsiz yigitlar sirasiga kirardim. Bu kamchiligimni tuzatishim, sabr va irodali bo'lishim kerak edi. Buni hayot menga qiyinchilik bilan oson tushuntirib qo'yishini bilardim.

Ha mayli, mavzumizdan chalg'imagaylik, do'stim, hali o'zim haqimda ko'p-ko'p so'zlab beraman senga...

"Xo'sh, shunga nima bo'libdi, Ahmad aka?" deb so'radim. Ko'zlarimda yosh aylana boshladi. Onamni yig'latgan narsa nima ekani ichimni kemirib turgan paytda elektr-pelektri bilan ishim yo'q edi. Ahmad aka yana siniq ovozda: "Bilaman, hammasini tushunib turibman... Kel, pastga tushib gaplashib olaylik", dedi.

Men: "Ahmad aka, siz tushavering, ortingizdan tezda yetib olaman", deya eshikni chaqqonlik bilan yopdim-u, vajohatla onamning oldiga shoshdim. "Onajon, sizga nima bo'ldi?" deb so'radim, ammo u javob bermasdan nuqul yig'lardi. Xullas, o'sha holatni anglatish ham mushkul hozir. Uyda mendan boshqasi yo'q ustiga-ustak: ukam harbiy xizmatda, opamni uzatganmiz, uyda otam, onam va men turamiz...

Ha, aytgancha, otam degandek, otam qaerda ekan o'zi? Chunki u hozir ishsiz yuribdi. Doim uyda ediku. Oldingi turar joyimizdan ancha uzoqqa ko'chib ketganimiz sababli o'sha tomonlardagi qadrdon choyxonasiga borishga ham hafsala qilmasdi uncha-munchaga. Albatta, borolmaydi-da.

Ishsiz yurgani bois cho'ntagida sariq chaqa ham yo'q bo'lsa. Shuning uchun ham to'rt oydan beri ijara haqi berilmagan, kommunal to'lovlar masalasi hal qilinmagan, gaz uzib qo'yilgan... Eh, do'stim, hech nar-

sadan xabaring yo'q! Onam biroz o'ziga keldi shekilli: "Otang ketdi, o'g'lim", dedi. Bu gapdan hech narsa anglamadim. Chunki otamning uydan chiqishi oddiy hol bo'lib qolgandi. Yoshligimda ham ketardi, katta bo'lganimda ham shu ahvol. Xullas, qachon qarasang ketgani-ketgan. "Axir qayerga ketdi, ona, nimga yig'layapsiz?" deb so'rasam, nuqul: "Ketdi", deyotgandi. Nihoyat, "Jaketini ustiga ildi-yu, ketdi", degani-dan keyin tushunib yetdim hammasini...

Ha, to'g'ri fahmlab turibsiz, otam bizni butunlay tashlab ketgandi. Ammo hozir buni o'ylashga-da kuchim yetmayotgandi. "Ahmad aka elektr tokini uzgani kelganlar bilan birga pastda kutyapti, oldilariga tushmasam bo'lmaydi, ona", degan edim: "Ertalab gazni uzib qo'yishgan edi, o'g'lim", dedi onam.

Uy ichida bir yo'lak bo'ladi bilsangiz, yotoqxonadan eshikka olib chiqadigan. Ana shu yo'lakda hushimdan ketib qolishni istadim o'sha onda. Chunki bu muammolar qarshisida chorasiz holda nima qilishimni bilmay turardim. To'g'ri, shu yoshgacha ham ko'p ko'rgiliklar o'tdi boshimdan. G'am-alam nima ekanini yaxshi bilardim, ammo bunaqangi masalada mas'uliyatni bo'yniga olish nimaligidan xabarsiz edim, ochig'i. Yigirma ikki yoshimda ijara haqi, elektr toki, gaz, uy va oila nimaligini bilmagancha eshikdan chiqib, pastga tushib borayotgandim. Ahmad aka kelganlar bilan gaplashib, biz uchun yana besh kun muhlat so'rabdi. Tushsam, kelganlar, allaqachon, ketib bo'lgan ekan. Yoniga borarkanman, Ahmad aka bir dona sigareta uzatdi va: "Kel, kel, arslonim, hal qildim, ammo bor-yo'g'i besh kunga", dedi kulgancha, o'sha siniq, bizga foydasi tekkanidan xursand bo'lgan

ovozda. "Dom"imiz kattalari, xususan, Ahmad aka va qo'shnilar otamning qiliqlarini qancha tanqid qilsalar-da, bizni yaxshi ko'rishardi. Sigaretani tutatib cheka boshladim. Shu paytda Ahmad aka ham maruzotini boshlab: "Ertalab gazni uzib ketishdi, xabaring bormi?" deb so'radi. "Onam boyagina aytdi, aka", dedim. "Gazni uzib ketishlariga qarshilik qilolmadim. Boisi yo'q edim", dedi Ahmat aka. Men esa: "Qo'yavering, aka, hechqisi yo'q", dedim g'irt "ko'cha" bolalar gapiradigan ohangda va biroz isyonkor tarzda. Hozir mazkur satrlarni o'qiyotgan va "Bu qanday javob bo'ldi?" deyotgan o'quvchilarimga aytamanki: "O'sha vaziyatda mening o'rnimga o'zingizni qo'yib ko'ring va men bo'lsam, nima qilgan bo'lardim, deya so'rang", deyman. Ana o'shanday bir javobda, xullas...

"Menga qara, o'g'lim, qo'limizdan keladigan biror ish bo'lsa aytaver, bu vaziyatda bunaqasi ketmaydi", deya gapida davom etdi Ahmad aka. Uning gaplarida jon bor edi. Chunki o'tgan hafta ham uy egasi eshik qoqib: "Yo pulini to'lab qo'ying, yoki uyimni bo'shating, axir to'rt oydan beri bir chaqa ham berga-ningiz yo'q", dedi. Ochig'i, to'rt oydan beri ijara haqi to'lanmaganini biz ham uning og'zidan eshitib turgandik.

Sababi otam to'lab turibdi, deb o'ylagandik-da. Ammo bunday emas ekan, uy egasi eshik qoqqandagina angladik barini. Hali ham baraka topsin shu odam, naq to'rt oydan beri sabr qilib kelarkan. Faqat qo'ng'iroq qilganda otam ko'tarmagani uchun majburan oldimizga chiqibdi. Bunga o'xshash kunlar oldin ham boshimizdan o'tgan bo'lsa-da, oxirgisi ulardan farqli edi. Negaki oilamiz tarqalib ketgandi. Ya'ni otam